XALQ DEPUTATLARI KO‘KDALA TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2023 - yil 8 - may VI-10-38-4-224-K/23 Ko'kdala tuman hokimligi

Tuman mahalliy budjetining 2023 yildagi qo‘shimcha mablag‘lari hisobidan mablag‘larni yunaltirish to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27iyundagi “Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta’minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4366-sonli, 2021 yil 5-martdagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi ishtirokini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlarining ijrosini ta’minlash, tumanni ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish, kreditor qarzdorlikni qoplash hamda kechiktirib bo‘lmaydigan boshqa tadbirlarga tuman mahalliy budjetining 2023 yil boshidagi erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan mablag‘larni yo‘naltirish to‘g‘risidagi takliflarni ko‘rib chiqib, Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari tomonidan bildirilgan takliflar, fikr va mulohazalarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24- moddalariga asosan, Xalq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A DI:

1.Tuman hokimligining Ko‘kdala tuman mahalliy budjetining 2023 yil boshidagi erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va kreditor qarzdorlikni qoplash hamda kechiktirib bo‘lmaydigan boshqa tadbirlarga yo‘naltiriladigan mablag‘lar bo‘yicha takliflar **ilovaga** muvofiq ma’qullansin.

2.Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (B.Do‘stov), tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi v.v.b (I.Muxammadiyev) bilan birgalikda;

-belgilangan muddatlarda mazkur qarorning ilovasiga muvofiq ko‘zda tutilgan tadbirlarni o‘z vaqtida bajarilishini ta’minlash maqsadida tegishliligi bo‘yicha mablag‘larni moliyashtirish choralarini ko‘rsin.

-O‘zbekiston Respublikasining “2023 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi talablari asosida tuman mahalliy budjetining tasdiqlangan parametrlariga belgilangan tartibda tegishli o‘zgartirishlar kiritsin.

3.Tuman G‘aznachilik bo‘linmasi (X.Ro‘ziyev) mazkur qarorga asosan ajratilgan mablag‘larni to‘lov intizomiga rioya etgan holda tashkilotning hisob raqamiga o‘tkazib berilishini ta’minlasin.

4.Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohatlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (F.Bektemirov) hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (B.Do‘stov) zimmalariga yuklatilsin.

5.Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi **X.Djurayev**

Xalq deputatlari Ko'kdala tuman
Kengashining
2023 yil 8 maydagi
VI-10-38-4-224-K/23-son qaroriga
1-ilova

Ko‘kdala tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar

№	Mablag‘ ajratilgan tashkilot nomi	Tadbir nomi	Ajratilgan mablag‘ miqdori (mln.so‘m)
1	Tuman hokimligi	Tumanda ayollar daftariga kiritilgan xotin-qizlarni ijtimoiy iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida “Ayollar daftari” jamg‘armasiga mablag‘ ajratish bilan bog‘liq xarajatlarga.	667,0
2	Tuman hokimligi	Tuman hokimligi axborot xizmati rahbari-hokimning axborot siyosati masalalari bo‘yicha maslahatchisini rag‘batlantirish bilan bog‘liq harajatlar.	18,8
3	Tuman hokimligi obodonlashtirish boshqarmasi	Ko‘kdala tuman chegarasi bilan hududlar (viloyat, tuman) chegarasi o‘rtasida tuman chegarasini belgilovchi belgi (stello) o‘rnatish harajatlariga	300,0
	Жами		**985,8**